



10 (78)-son
2019-yil, oktabr

IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi



MIRTEMIR,
O'zbekiston xalq shoiri

ONA TILIM

Yobonlarning cheksizligi,
Ham samumi, ham hovuri,
Onajonlar allasidan,
Ko'z yoshidan, oq sutidan;
To'qaylarning tengsizligi,
Jilg'alarning sho'x g'ovuri, a
Yigitlarning yallasidan,
Suluvlarning sukutidan –
Yo'g'rilgan til –
Ona tilim.

Daryolarning toshqin payti
Arslon yanglig' arillashi,
Dovonlarning ko'k qiyosi,
Qorli tog'lar jilosidan,
Cho'ponlarning qamish bayti,
Childirmaning darillashi,
Go'ro'g'lining alp siymosi,
Alpomishning da'vosidan –
Tug'ilgan til –
Ona tilim.

Tulporlarning asovligi,
Tosh chaqishi, ovloligi,
Bobolarning oltin so'zi,
Bo'yoqchining o'lanidan:
To'quvchining alg'ovligi,
Chilangarning dalg'ovligi,
Bu tuproqning qo'sh ho'kizi,
Qo'shchisi ham qo'lanidan –
Yaralgan til –
Ona tilim.

ТИЛ УММОНИ

Ассалому алайкум, азиз дўстлар!

Куни кеча Ўзбекистон Республикаси “Давлат тили ҳақида”ги Қонуни қабул қилинганлигининг ўттиз йиллиги муносабати билан “Tashkent City” ҳудудидаги “Congress Hall” мажмуасида Мухтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев иштирокида катта байрам тадбири бўлиб ўтди ва унда Президентимиз нутқ сўзладилар. Президентимиз нутқи бер неча бор олқишлаб турилди. Чунки нутқда халқимизнинг бир неча йиллик орзуларининг рўёбга чиқиши ўз аксини топган эди. Президентимиз ўз нутқларида шу куни “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини ошириш ҳақида” янги Фармонни имзоланганликларини эълон қилдилар. Фармонда халқимизнинг кўп асрлик маданий, илмий-маърифий ва бадий тафаккури, интеллектуал салоҳиятининг ёрқин ва бебаҳо маҳсули бўлган ўзбек тили жаҳондаги бой ва қадимий тиллардан бири эканлиги алоҳида таъкидлаб ўтилди.

Фармонга кўра, **21 октябрь «Ўзбек тили байрами куни» деб эълон қилинди.** Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тузилмасида ходимларининг умумий чекланган сони 9 та штат бирлигидан иборат **Давлат тилини ривожлантириш департаменти ташкил этилди.**

Департаментнинг асосий вазифалари сифатида яна қуйидагилар кўрсатиб ўтилган:

давлат тилини ривожлантириш, давлат тили тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилиши устидан мониторингни амалга ошириш, ушбу соҳада жамоатчилик назоратининг самарали шакллари жорий этиш;

давлат органлари ва ташкилотлари, жумладан, маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг давлат тилини ривожлантириш, давлат тили тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилиши устидан давлат назоратини ташкил қилиш бўйича фаолиятини мувофиқлаштириш;

давлат тилининг амал қилиши билан боғлиқ муаммоларни аниқлаш ва бартараф этиш юзасидан, шунингдек, уни ривожлантириш соҳасида

ягона давлат сиёсатини юритиш бўйича таклифлар тайёрлаш;

ўзбек тилининг ёзма нутқи меъёр ва қоидаларини ишлаб чиқиш бўйича ҳамда лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини тўлиқ жорий этиш борасидаги ишларни жадаллаштириш;

давлат тилини ривожлантириш бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш;

давлат тилини ривожлантириш бўйича дастурлар ва «йўл хариталари»ни ишлаб чиқиш, уларнинг амалга оширилишини назорат қилиш, шунингдек, «Ўзбек тили байрами куни»ни нишонлаш бўйича ишларни мувофиқлаштириш; илмий асосланган янги сўз ва атамаларни истеъмолга киритиш, замонавий атамаларнинг ўзбекона муқобилларини яратиш ва бир хилда қўлланишини таъминлаш, географик ва бошқа топонимик объектларга қонун ҳужжатларига мувофиқ ном берилиши борасидаги фаолиятни мониторинг қилиш ва мувофиқлаштириш;

давлат тилини ривожлантиришга оид илмий-тадқиқот ишларини қўллаб-қувватлаш, бу соҳада халқаро ҳамкорликни амалга ошириш.

Шунингдек, Фармонда ЎЗР ВМга ҳам муҳим топшириқлар берилди. Унга кўра:

а) уч ой муддатда:

«Ўзбек тили байрами куни»ни белгилаш бўйича қонун лойиҳасини;

«Давлат тили ҳақида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини бугунги кун талаблари нуктаи назаридан такомиллаштирган ҳолда унинг янги таҳрирдаги лойиҳасини ишлаб чиқсин ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасига киритсин;

б) икки ой муддатда хорижий давлатлар тажрибасини чуқур ўрганган ҳолда илмий асосланган янги сўз ва атамаларни расмий истеъмолга киритиш бўйича Атамалар комиссиясини ташкил этиш ва унинг фаолиятини тартибга солиш тўғрисида қарор қабул қилсин;

в) 2020 йил 1 июнга қадар қуйидаги асосий йўналишларни ўз ичига олган 2020-2030 йилларда ўзбек тилини ривожлантириш ҳамда тил сиёсатини такомиллаштириш концепцияси ва давлат дастури лойиҳаларини киритсин:

мамлакатимиз ижтимоий ҳаётининг барча соҳаларида, жумладан, давлат бошқаруви, замонавий ва инновацион технологиялар, саноат, банк-молия тизими, ҳуқуқшунослик, дипломатия, ҳарбий иш, тиббиёт ва бошқа соҳаларда давлат тилининг имкониятларидан тўлиқ ва тўғри фойдаланишга эришиш;

таълим муассасаларида давлат тилини ўргатиш ва уни билиш даражасини баҳолаш тизимини янада такомиллаштириш, давлат тилининг илм-фан тили сифатидаги нуфузини ошириш;

давлат тили софлигини сақлаш, уни бойитиб бориш ва аҳолининг нутқ маданиятини ошириш;

давлат тилининг ахборот ва коммуникация технологиялари, хусусан, Интернет жаҳон ахборот тармоғида муносиб ўрин эгаллашини таъминлаш, ўзбек тилининг компьютер дастурларини яратиш;

давлат тили қоидаларининг бузилиши билан боғлиқ ҳолатларни мунтазам ва ҳар томонлама ўрганиш, уларни бартараф этишга доир чора-тадбирларни ишлаб чиқиш;

мамлакатимиз ҳудудида истиқомат қилувчи барча миллат ва элатлар тилларининг ривожланиши учун кенг имкониятлар яратиш, уларга давлат тилини ўрганиш учун қулай шарт-шароитлар яратиш бериш;

давлат тилининг халқаро микёсдаги ўрни ва нуфузи, унинг бошқа тиллар билан алоқалари истиқболларини белгилаш, хорижда истиқомат қилувчи ватандошлар ва ўзбек тилини ўрганиш истагида бўлган чет эл фуқаролари учун ўзбек тили дарсликлари ва электрон дастурларни ишлаб чиқиш ва уларни кенг микёсда тарқатиш, ўзбек тилини ўргатиш бўйича махсус курсларни ташкил этиш каби муҳим вазифа сифатида белгиланди.

Эътибор беринг, **ЎЗБЕК МИЛЛАТИ ВА ДАВЛАТЧИЛИГИ ТАРИХИДА ИЛК БОР ЎЗБЕК ТИЛИ НУФУЗИ ВА МАВҚЕИНИ ЮКСАЛТИРИШ БОРАСИДА ШУНДАЙ ФАРМОН ҚАБУЛ ҚИЛИНДИ.**

Мазкур Фармон ҳам Мухтарам Президентимизнинг шахсий иродалари туфайли қабул қилинди. Буюк Навойнинг, халқимизнинг азалий орзуларидан бири бугунга келиб ушалди, десак, менимча, янглишмаймиз.

Бугун Давлат тили ҳақидаги Қонун қабул қилинганига роппа-роса 30 йил тўлди. 1989 йил 21 октябрдан кейинги ўтган давр тарих саҳнасида жуда қисқа бир вақтни ташкил этса-да, юртимизда бу соҳада оламшумул ишлар амалга оширилди. Мухтарам Президентимиз 2019 йилнинг 4 октябрида имзоланган “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида” ги Қарор она тилимиз ривожига берилган катта эътибор намунаси.

Тил хусусида билдирилган фикрлар турлича, лекин ҳақиқат шуки, тил бениҳоя муқаддас ва мўътабардир. У инсонни шакллантирган, тараққиёт сари етаклаган, унинг ақл неъматларини ифода этиб, тафаккур гулшани дарвозаларини очган тенгсиз бир робитадир. Шундай бир буюк эҳтиром ва эъзозга сазовор бўлган тилларнинг кечмиши бир хил эмас, албатта. Тарих саҳнасида ўзбек тили не машаққатлар билан омон қолди. Ахир, тил

– миллатнинг руҳи, дейилади, тил ўлса, миллат ҳам тамом бўлади. Бунга мисоллар камми? Сибир халқларини ўйлаб кўринг, уларнинг тиллари йўқ бўлиши билан бирга исмлари ҳам ўзгариб кетди. Бутун Европа тилларининг шаклланишида етакчи тил вазифасини бажарган буюк лотин тили, Шарқ тилларининг бобоси деб атаганимиз санскритча тамоман тугаб битди. Ёки яқин ҳудудларимизда кенг қулоч ёйиб тараққий этган сўғд тили, пахлавий, парфиён тилларининг кечмишини эслайлик. Ёки Шимолий Америкадаги алгонкин тиллари микрооиласига қирувчи Массачуси ҳамда могиқан тилларининг тақдири ҳам йўқлик билан яқунланди. Ёки қадимги Вавилонияда кенг тарқалган аққад тили, эраמידан олдинги III асрдан эраמידнинг IV асрига қадар Фарбий Осиёда яшаган оромийларнинг оромий тили, шунингдек, қадимги Финикиядаги финикий тили, қадимги миср тили негизда пайдо бўлган копт тили каби тилларнинг тақдири ҳам йўқлик билан яқун топиб, тарих саҳнасида тушиб қолди. Шунинг учун ҳам тилимизнинг бугунги ривожини ва жаҳон тиллари орасидаги муносиб ўрни учун беадад шуқурлар қилишимиз керак. Тўғри, тилимиз ҳам ўз тарихий тараққиёти давомида кўп синоатлардан муваффақиятли ўта олди. У дунё тиллари уммонида келиб қуйилгунга қадар қаердадир шовуллаб шиддат билан оқди, қаердадир тарих йўлидаги дамбага дуч келиб, шиддатини секинлатди, яна дамбани ошиб ўтиб ўз ўзанида тил уммони сари интилди. Тилимизнинг бугунга қадар омон-эсон келишининг асосий боиси халқимизнинг ўз она тилини жонидан севиши, ардоқлашидир.

Тил ҳодисаси – ажойиб ҳодиса. Ҳар қандай тил унинг сўзлари билан гўзал. Буни биз баъзида ё сезамиз, ё сезмаймиз. Бу ҳолатни буюк шоиримиз, Ўзбекистон Қаҳрамони Эркин Воҳидов қуйидагича таърифлайди: “Дунёнинг энг ажиб, энг сирли ва сеҳрли саёҳатларидан бири Сўз оламига саёҳатдир. Негаки, Сўз яратилишдан мўъжиза. Аввал Сўз бўлган, дейилади муқаддас китобларда. ... Сўзнинг илдизига етган киши дунёнинг тагида етгандек баҳра топади. Инсоният тарихи сўзлар қисматида яшириниб ётар экан”. Халқ шоири билдирган ушбу фикрлар тилнинг нақадар буюк куч эканлигидан далолатдир. Шунинг учун ҳам ўз юртини севган, миллатини ардоқлаган, ўзини Ватанпарвар, маданиятли, зиёли деб ҳисоблаган ҳар қандай инсон ўз она тилини ардоқлаши, унинг бугунгидек таровати, гўзаллиги билан келажак авлод учун етказишдек масъулиятни тўла ҳис этиб яшаши зарур.

Президентимиз кечаги нутқларида барчамизнинг она тилимизга бўлган муносабатимизга оид қуйидаги жумлани айтдилар: **“Мухтасар айтганда, ҳар биримиз давлат тилига бўлган эътиборни мустақилликка бўлган эътибор деб, давлат тилига эҳтиром ва садоқатни она Ватанга эҳтиром ва садоқат деб билишимиз, шундай қарашни ҳаётимиз қондасига айлантиришимиз лозим. Бу олижаноб ҳаракатни барчамиз ўзимиздан, ўз оиламиз ва жамоамиздан бошлашимиз, она тилимизга, урф-одат ва қадриятларимизга ҳурмат, Ватанга меҳримизни амалий фаолиятда намойён этишимиз керак”.**

Бу йўлда барчангизга битмас-туганмас куч ва ирода, шижоат тилайман.

Иброҳим ЙЎЛДОШЕВ,
филология фанлари доктори, профессор

XALQARO

ANIMATSIYA

KUNI


Har yili 28-oktabrda nishonlanadigan Xalqaro animatsiya kuni Xalqaro animatsion filmlar uyushmasi (ASIFA) Fransiya bo'limi tashabbusi bilan, 2002 yilda birinchi animatsion texnologiyalari ommaviy namoyishining 110 yilligi sharafiga tashkil etilgan.

1892-yil 28-oktabrda – Parijda rassom va ixtirochi Emil Reynaud tomoshabinlarni yangi, hozirgacha misli ko'rilmagan tomoshaga – "optikali teatr" ga chorladi. Iqtidorli ixtirochi birinchi marta o'zining harakatlanuvchi suratlarini ekranlashtiruvchi praxinoskop apparatini namoyish qildi. Endilikda ushbu tarixiy voqeani zamonaviy multfilmlarning tug'ilishi – deb ataymiz va bu sana animatsion filmlar davrining debochasi bo'lib qoldi.

Aksariyat mamlakatlarda bayram tadbirlari belgilangan sanadan bir necha kun oldin boshlanadi. Xalqaro Animatsiya kuni arafasida, butun dunyo bo'ylab professional va animatsion filmlarni sevuvchilar o'zining film dasturlarini turli tuman ko'rik va fetivallarda namoyish qiladilar. Bugungi kunga kelib bu kabi

multfilm seanslari bir vaqtning o'zida dunyoning 104 mamlakatida bo'lib o'tmoqda!

Jahon multiplikasiyasida ilk paydo bo'lgan film chizma texnologiyada yaratilgan bo'lsa-da, ammo



“Optikali teatr” Charl-Emil Reyno (1892-yil)

O'zbekistonga XX asrning 1965-yili qo'g'irchoq texnologiyasi sifatida kirib keldi. Kino san'atida faoliyat yuritgan iste'dodli rejissyorlar Y.Petrov va D.Salimov o'zbek multiplikasiyasining otasi hisoblanadi.

Hozirgi davrida animatsiyaning

texnik imkoniyatlari hayratlanarli darajada rivojlangan. Filmlar, o'yinlar va boshqa 3D loyihalarini yaratishda Autodesk kompaniyasi 3D qahramon animatsiyasi uchun MAYA, 3D MAX, raqamli haykaltaroshlik uchun



videoni tovushli, sxemali tuzish, shuningdek, 2D animatsiyalarni yaratish imkonini beradi.

Bugun ommaviy axborot vositalari, radio-televideniya animatsion filmlar mavzusida ko'p gapirilmoqda, maqolalar chop etilmoqda, turli shoular-u bahslar uyushtirilyapti. Ba'zan biri ikkinchisini mutlaqo inkor etadigan mulohazalar bildirilmoqda. Bu kishini bir qadar mamnun etadi, albatta. Zero, hamma zamonlarda ham san'atning biror sohasiga alohida e'tibor, kuyunchaklik bilan munosabatda bo'lish o'zining ijobiy samarasini bermay qolmagan, oxir-oqibat haqiqiy san'at durdonalari yaratilishiga turtki vazifasini o'tagan.

Yurtimizda ham kompyuter grafikasiga qiziqish tobora kuchayib 3d rassom va animator ustalariga jiddiy talablar va murakkab vazifalar qo'yila boshladi. Bu talab va ishonch kelajakda, albatta, o'z samarasini ko'rsatadi degan umiddamiz.

Kamola SULAYMONOVA,
“Kino va televideniye rejissyorligi”
magistranti

MUDBOX, render uchun ARNOLD va boshqa keng qamrovli dasturiy ta'minotlarni taklif qilsa, golland dasturchisi Ton Rosendal o'zining birgina Blender dasturi orqali sizga modellashtirish, haykaltaroshlik, animatsiya, simulyatsiya, render,



ДИЛ ИЗҲОРИ



“Устоз отандай улғ” дейилган гап айнан менинг меҳрибон, жонкуяр, бағрикенг, чексиз хурмат ва эҳтиромга лойиқ устозим Шермат Ёрматов хақида айтилган бўлса керак! Устозимни 10 ёшимдан биламан... 1970 йилларда “Санъат байрами” кўрик-танлови бўларди, шу танловга Бўка туманидаги бир неча босқичлардан ўтиб Тошкент шаҳрида бўлиб ўтадиган Республика босқичида устозимни биринчи марта кўрганман. Ҳали-ҳали ёдимда... бу инсон шунчалик нузли эди-ки, уларга қараб туриб болаларча қалбим билан муҳрланиб, сеҳрланиб қолгандим... Менга ҳайъат аъзолари энг юқори 10 балл қўйишди ва Шермат акам менга Глиэр номли Республика санъат мактабига ўқишга киришимни таклиф қилдилар. Лекин ҳужжатлар топшириш вақти ўтиб кетган эди, Шермат акам мени қўлимдан етаклаб шу мактабга олиб келдилар, 10-сентябрь, ўқиш бошланганига шунча кун бўлганига қарамай, мени шу мактабга жойлаштирдилар ва шу кунда менинг келажакимни “чизиб бердилар!” Глиэр мактабида мен аъло баҳоларга ўқидим, чунки устозим ҳар куни ўқишларимни назорат қилиб турардилар. Мактабдаги ўқувчилар хори ҳамда “Булбулча” болалар хорида улардан таҳсил олдим ва жуда кўп илм ўргандим. Кўшиқ куйлаш, уни ҳис қилиш, тингловчиға етказиб билиш, томошабинга яхши кайфият

улашиш, сахнада ўзини тутиш каби санъат сирларини устозим ҳар доим уқтириб бордилар.

Болалигимда жуда тортинчоқ, уятчан киз эдим, синфда яхшигина куйлаб туриб, суратга олиш ёки кўшиқни магнит тасмасига тушириш жараёнида овозимни чиқара олмасдим. Кўпинча, устозим менга яққохон тарзда ўргатган кўшиқларини студияга кирганимда, куйлай олмаганлигим туфайли ўртоғим Наргиза Мирзаева ижро қиларди. Бир куни устозим ўша даврдаги “До ре ми фа соль” кўрсатувида кўшиқ айтишим учун мени телестудияга олиб келдилар, репетиция вақтида яхши куйладим, лекин жонли эфир кетаётган пайтда умуман овозимни чиқаролмай қолдим, кўшиқ хиргойига айланди. Эфирдан сўнг устозим мени жуда қаттиқ койидилар, танқид қилдилар, ҳаттоки, “Сен мени ишончимни оқлай олмадинг, сен бу кўрқоклигинг билан ҳеч ким бўла олмайсан!” дедилар. Меҳрибон, ширинсўз Шермат акам қаттиққўл, талабчан, ҳатто жаҳлдорҳам эканликларини ўшанда биринчи марта кўрдим. Бу воқеа менга бир умрлик дарс бўлди.

Тақдирни қаранг-ки, йиллар ўтиб “Ёшлар” телеканалидан менга қўнғироқ бўлди, “До-Ми-Соль” кўрсатуви лойиҳаси яратилаётгани ва шу кўрсатувга мени бошловчилик қилишимни таклиф қилишди. Мен устозим билан маслаҳатлашиш учун қўнғироқ қил-

дим. Устозим жуда хурсанд бўлдилар, “Рози бўлавер, кизим” дедилар. Мен “Бундай кўрсатувлар сизнинг бошловчиликгингизда бор-ку, “Биргаликда куйлаймиз, “Кўшиғим жон, кўшиғим”, десам, “Болалар учун кўрсатувлар қанча кўп бўлса, шунча яхши. Бошлайвер, кизим”, деб оқ фотиҳа бердилар. Шундан кейин “До-Ми-Соль” кўрсатуви эфирга чиқди.

Қатта синфларда ўқийдиган давримда мени хор олдида туриб ишлашимга шариит яратиб берардилар, “секин-секин ишлашни ўрган”, дердилар. Кейинчалик ўзимга бўлган ишончини ҳам устозим шакллантирдилар.

Консерваторияда ўқиб юрган давримда ўсмирлар хориға қатнашардим, Москвага бориш учун тайёргарлик қилаётган вақтимизда устозим қўлимга бир нота бердилар, “Шуни эртагача оранжировка қилиб кел”, дедилар. Мен “Аранжировка қилишни ҳали яхши билмайман”, дедим, (4-курсда ўқирдим), Шермат акам “Сен аввал бошлаб кўр, секин-секин ўрганиб кетасан”, дедилар. Ўша кеча ухламасдан ўша кўшиқни хор учун оранжировка қилдим, айнан шу вариантини Москвада куйладик, олқишлар олдик. Бу А. Назаровнинг “Дўлана” кўшиғи эди.

Йиллар ўтиб “Севинч” вокал ансамблини ташкил қилишда ҳам устозимнинг маслаҳатлари менга далда бўлди. Айнан болалар билан ишлаш, уларга

меҳр бериш, уларнинг орзу-умидлари билан яшаш менга устозимдан ўтган... Устозим менинг очилмаган кирраларимни ҳам очдилар, уларнинг турткилари билан ҳозирги кунда хор ва вокал ансамбллари учун 100 дан ортиқ оранжировкалар яратилди. 2015 йилда ҳукуматимиз томонидан менинг камтарона меҳнатларим ҳисобга олиниб, “Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими” давлат мукофоти берилди. Хурсандчилигимни баҳам кўриш учун биринчи бўлиб устозимга қўнғироқ қилдим. Устозим йиғлаб юбордилар... “Мен энг бахтли устозман, бир кунда иккита шогирдим мукофот олди!”, дедилар. Ўша куни опера ижрочиси Рамз Усмонов ҳам мукофотланганди...

Устозим Шермат Ёрматов хақида соатлаб гапиришимиз, ҳар биримиз алоҳида китоб ёзишимиз мумкин! Биз шогирдлар кўп йиллар дил изхорларимизни айтаверайлик, устозимиз эса уларни эшитиб диллари яйраб юраверсинлар! Муборак 80 ёшингиз қутлуг бўлсин, Устозим! Бир умр таъзимдамиз!

Саодат МУЗАФФАРОВА,
“Вокал” кафедраси доцент в.б.,
“Севинч” вокал ансамбли
бадний раҳбари,
Ўзбекистон Республикасида
хизмат кўрсатган маданият
ходими

UNI TOPDINGMI?

Ariqdagi suv chor-atrofdagi to'xtab qolgan lahzalarni o'zi bilan ergashtirib oqar, mayin shabboda turfa xil qushlarning chug'urklarini eritib, endigina yog'a boshlagan yomg'irga qo'shib yo'llarga sochar edi. Tunda deraza ortidagi anhorning ajib tovushlari bir-biri bilan quvlashmashoq o'ynab, hech qayerda yangramagan toza ohanglarni hosil qilar edi. Bu yerga kelganimdan beri negadir seni topa olmayapman. Hamma yerdan izlayman. Ho'-o'v anavi eng baland cho'qqiga chiqaman-da, har yonga sochilib ketgan diqqat-e'tiborim siniqlarini jamlab, pastdan to'xtovsiz eshitilayotgan so'zlarga quloq solaman. Sening ovozingdan darak yo'q. Miltiroq yulduzlarga boqaman. Buni qara-ya, bizning yulduzlarimiz shu yerdan ham ko'rinar ekan. Qiziq, qanchalab masofani bosib o'tsak-da, osmon qimir etmay joyida turaverarkan...

Quyoshning zarhal o'qlari yelkamga ozor bermay botardi. Yo'l yoqalab bir maromda chayqalayotgan teraklar bilan yaproqlar tilida gaplashaman. Ular xuddi seni izlayotganimni bilgandek so'z qotishadi:

– Uni topdingmi?
– Yo'q...
– U ham seni izlayapti.
– Qani, qayerda?!
– Shu yaqin atrofdagi. Izlayver, albatta topasan!

Bu so'zlar tugab borayotgan lahzalarimga yana bir nafaslik umid baxsh etadi. Yo'lda davom etaman. Sharshara yoniga borib, ovozim boricha ismingni aytib chaqiram... Ruhim toshlarga urilayotgan suvning shovullashlariga singib ketadi. Bu ohanglarda ham o'sha sas bor edi:

– Uni topdingmi?
Javob berishga majolim qolmay, boshimni xam qilaman.
– U shu yerda, ortimizdan yur, – deya irmoqlar qovjiragan yalanglikka

ergashtira boshlashadi. Yo'l oxirida bir tepallikka duch kelaman. Irmoqlar indamay ortga qaytishadi. Qarshimda esa bir juft xarsangtosh yotardi. Ulardan ham seni so'rayman. «Yuqoriga chiq, u seni kutib turibdi» deyishlari bilan, o't-o'lanlar-u toshlarga tirmashgancho'qqiga chiqa boshlayman. Ancha balandladim. Yetay deganimda tirmashishga hech vaqo qolmadi. Pastga sho'ng'iy boshladim. Qo'rqib ketdim. Seni topa olmaslik hissiga bo'y beray dedim. Tuyquq qo'l-u yelkalarimdan bir novda tutib qoldi. Unga bor kuchim bilan tirmashdim. Nihoyat novda qisqarib-qisqarib meni senga olib bordi...

– Bu yerda nima qilyapsan?
– Seni kutdim...
– Nega daraxtga aylanib olding? Tag'in bir o'zing, giyoh o'smaydigan yerga kelib olibsan.

– Muhimi, meni topding-ku!
– Ha, nihoyat seni topdim! Yur, odamlar orasiga qaytamiz.
– Yo'q, bora olmayman.


– Nega, axir? Yana o'z holingga qayt, bu ahvolda borolmaysan-da, albatta.
– Qo'rqaman...
– Kimdan? – dedim, uning suvsab qolgan sumbatiga hayrat aralash nigohlarimni qadab.

– Odamlardan! – dedi, u o'ksik ovozda boshini quyib solib.
– Ular yomon emas, qo'rqma!
– Rostdanimi?!
– Ha! Men ham ularning biriman axir. Seni zo'rg'a topdim, ishon!
– Unda... Unday bo'lsa boraman!
– Endi seni sira ham yolg'izlatib qo'ymayman, hech kimga hafa qildirmayman. Endi doim birga bo'lamiz, Muhabbat!

Muhammad SIDDIQ,
“Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi”
ta'lim yo'nalishi 3 - kurs talabasi

Farzand tarbiyasida madaniyat va san'atning xissasi

Tarbiya arabcha «tarbiyat» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilmoq, ta'lim bermoq, odob o'rgatish, mehrbonlik ko'rsatish, himoya qilish kabi mazmunga ega. Har bir inson, albatta, bola bo'lgan, uning kelajakdagi mavqeyini esa bolalikda olgan tarbiyasi belgilab beradi. Mutafakkirlarimiz aytganidek, har bir inson o'ziga xos iste'dod bilan dunyoga keladi. Kattalarning zimmasidagi vazifa esa ana shu iste'dodni yuzaga chiqarish, uni tarbiyalash va kamolga yekazishdir. Bolaning iste'dodini namoyon qilish uchun ham iste'dod kerak. Uning o'zini qanday tutishi, oiladagi tarbiyasining bir



ko'zgidir. Bolaning ota-onasi o'z o'rnida o'z ota-onasidan qanday tarbiya olgan bo'lsa, yoshligida ko'rgan-kechirganlarini o'z bolasiga tajriba sifatida olib o'tadi. Har qaysi oilada har xil tarbiya mezonlari yashiringan. Shaxs tarbiyasi uchun birinchi navbatda ota-ona mas'uldir. Ular farzandida yalt etgan iste'dod uchqunini sezgan zahotlaridanoq unga nihoyatda ziyaraklik bilan munosabatda bo'lishlari zarur. Aytaylik, bolada rasm chizishga ishtiyoq bor. Uni tabiat qo'yniga olib chiqish, o'z darajasidagi san'at asarlari bilan tashitirish kerak. Yoki musiqaga qiziqdi deylik. Unda birinchi navbatda

uning aynan qaysi yo'nalishga nisbatan mehri borligini aniqlash lozim. Balki u biror musiqa asbobini chalishni istar, balki ajoyib ijro ishtiyoqmandidir. Shularni vaqtida aniqlagan va yaxshi munosabatda bo'lgan ota-ona, yaxshi tarbiya ko'rgan, ko'nglida ezgulik barqurgan farzandning baxt-u kamolini ko'rishdek baxtga muyassar bo'ladi. Bolaning bo'yi o'sish jarayonida uning ruhiyati, xarakteri shakllanib boradi.

Qadimiy san'at turidan bo'lmish musiqa, kishi qalbini poklaydi, uni mehr-shafqatga, ezgulikka bo'lgan yuksak e'tiqodga yetaklaydi. San'at hamisha barcha daholarni o'z bag'riga chorlab turgan. Hatto eng zolim kishilar ham unga oshufta va talpinishda bo'lganlar. V.A.Suxomlenskiy «Musiqa – tafakkurning qudratli manbai. Musiqiy tarbiyasiz tom ma'nodagi aqliy kamolot bo'lishi mumkin emas», deb ta'kidlaydi. Musiqa hayotbaxsh, olijanob, axloqiy xususiyatlarni rivojlantiradi. San'at badiiy qiyofa – obraz vositasida to'la namoyon bo'ladi. Iste'dodli aktyorlar o'z his – tuyg'ulari va kechinmalari bilan zavqlanib, o'zligini to'la namoyon qila olishi mumkin. San'atda mazmun va shakl bir-birini izohlaydi.

Avvalo, oilaning o'zida madaniyatga va san'atga hurmat bo'lsa, ajdodlarimizning yuksak ma'naviy salohiyati qondan-qonga o'tgan bo'lsa, albatta, bunday oila jamiyatga sog'lom fikrli, komil shaxslarni yetishtirib beradi.

Mohinur TEMIROVA,
“Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish”
ta'lim yo'nalishi 1 - kurs talabasi

“Muhabbat bahori” filmida bizning “Zulfiya”

Bugun iste'dodli aktrisa Xadjimurotova Shahnozaning ijodiga nazar tashlar ekanimiz uning ana shunday beqiyos baxt sohibasi ekanligiga yana bir karra amin bo'lish mumkin. Shahnoza san'atga bo'lgan oshuftaligi va qobiliyati bilan san'at oliygohiga 2014-yil qadam tashladi. San'at va ma'daniyat institutining teatr san'at fakulteti Musiqali aktyorlik yo'nalishini 2018 yil tugatgan Shahnoza yanada professional ijodga intilib O'zbek Milliy Akademik drama teatrida o'z faoliyatini boshladi.

Shaxsan Prezidentimiz tashabbuslari bilan she'riyat chashmasidagi ikki buyuk adib va adibimiz ya'ni shodlik, baxt kuychisi Hamid Olimjon va sadoqat, vafo ramzi shoira Zulfiyaxonim haqida film olish topshirig'i berildi. “Muhabbat bahori” nomli ushbu badiiy filmda u Zulfiyaxonim obrazida namoyon bo'ladi. Bu uning kinodagi ilk roli. Bu filmda Zulfiyaxonim va Hamid Olimjonni hayot so'qmoqlari, betakror ijod jarayonlari, sadoqati, sevgisi vafosi-yu hijronli kunlari aks ettiriladi.

Film ssenariysini Zulfiya Qurolboy qizi va Mikoyil Sulaymonovlar yozgan.

Rejissyor o'ziga xos uslubga ega bo'lgan ustozimiz Ibroxim Rasulov.

Kasting jarayoni 1 yilu 3 oy davom etdi. Filmga tayyorgarlik jarayonlari uzoq va mas'uliyatli kechdi. Zulfiyaxonim roliga

mos keladigan qiyofa uchun aktrisalar va iste'dodli qizlar o'rtasida kasting e'lon qilindi. Kastingda 200 dan ortiq qiz qatnashib, fotosinovga 30 ta qiz saralandi. Fotosinovidan saralangan 3 aktrisa uchun ikki marta videosinov o'tkazildi.



Chunki, rejissior Ibrohim Rasulov Zulfiyaxonimga nafaqat tashqi ko'rinishi, balki ichki dunyosi bilan ham shu rolga loyiq bo'lishi va xalqqa hali tanilmagan hech bir kino, reklama, klipda chiqmagan yangi qiyofa izladi. Bundan maqsad “Muhabbat bahori” kino kartinasidan keyin xalqimiz shu tanlangan aktrisaning Zulfiyaxonim deb qabul qilishsin, degan fikrda edilar. Syomka jarayonlari So'qoq, Kumushkon, Krasnigorsk, Qo'qon, Namangan, Jizzax, Sochi va Zulfiyaxonim xonadonida bo'lib o'tdi.

Men o'ylaymanki, filmni ko'rgan tomoshabin Zulfiyaxonimni o'z onasi kabi chin yuragidan yaxshi ko'rib qoladi va film har bir insonni yuragidan chuqur joy egallaydi. Va har bir o'zbek qizi Zulfiyaxonimni soch turmagiyu kiyinishi, fe'l atvori-yu sadoqati, muomala madaniyatini, albatta, o'ziga oladi va o'rganadi. Zulfiyaxonimni davomchilari bundan-da ko'payadi. Men bunga ishonaman.

Zulfiyaxonim siyosida namoyon bo'layotgan Shohnoza Hadjimurotovaga mana shu timsol ila xalq mehr-u muhabbatiga umpbod sazovor bo'lishini va kelgusi ijodlarida ham ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Ma'ruf QODIROV,
"Drammatik teatr va kino aktyorli"
ta'lim yo'nalishi 1 - kurs
magistranti



Yomg'irlarga uzoq termulib,
Peshayvonda yotgan bolalik.
Singlisiga choponin berib,
O'zi sovuq qotgan bolalik.
Yarim-yalang, daryo yoqalab
Ninachilar quvgan bolalik.
Oftobaga har kun ertalab
Erinib yuz yuvgan bolalik...

Uzangiga oyog'i yetmay,
Qovog'ini uygan o'jarlik,
Qashqasining yonidan ketmay,
O'g'irlatib qo'ygan o'jarlik...
Bir qoracha qizning ustidan
Borar ekan dahanaki jang,
Singan tishin yerga tuflagan
va hech kimga aytmagan satang...

Bolalik bu – qo'ng'iroq. Kirish!
Partadoshning o'ng'aysiz didi.
Ko'yilganga siyoh tomdirish
Va yap-yangi kitoblar hidi...
Kenja botir, Guliver, Gerda –
Oqshom oldi kutilgan ermak.
Bolalik bu – qachon, qayerda
Tugagani noma'lum ertak...

Shahriyor IBRAGIMOV,
"Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish"
ta'lim yo'nalishi 1 - kurs talabasi

MENING DADAM

Yaratgan siz-u bizga hadya etadigan eng oliy ne'matlardan biri bu – ota-onamizdir. Ular farzandlari orasidagi o'zaro kelishmovchiliklar vaqtida tarjimon, dilbandidan hech narsa kutmaydigan haqiqiy do'st, muvaffaqiyatimizdan qalbi cheksiz quvonchga to'ladigan xolis duogo'yimiz, bizni borimizcha sevuvchi yagona insondirlar. Biz ko'pincha onalarimizni madh etamiz, ular uchun baytlar bitamiz. Shubhasiz, ular bu e'tibordan-da a'losiga munosibdirlar. Shunday e'zozga loyiq inson, albatta, otalar hamdir, shu jumladan mening dadam.

Mening dadam, go'daklik vaqtim meni ilk bora hayajon bilan qo'llariga olib, bag'riga bosgan eng yaxshi insonim... Sandal atrofida jajji qizalog'ini qo'yniga o'tqazib, non bilan yong'oq chaynab bergan mehri oftobim. Jiddiy nigohli, kamgap. Balki shu sabab hech qachon “Qizim, seni yaxshi ko'raman”, – deb, mehrini zabolari orqali ifodalagan, ammo, o'qishga shoshib ketayotgan chog'im, tong pallasida novvotni choйда eritib, saryoqnonni qo'llarimga tutgan mehri ummonim. Men uchun ko'p zahmat chekkan, lekin, “Shu ishini sening kamoling uchun qildim!” - deb baralla aytmagan kamsuqum posbonim. Men uchun hech qachon mablag' ayamagan, kezi kelganda “odobli” qizidan dashnom eshitib ham olgan qaddi osmonim. O'yingaroq paytlarim ko'chada o'ynab yurib sizni ishdan qaytayotganingizni

ko'rganim zahotiyoy oldingizga yugurib borib: “Dadajon, yaxshi ishlab keldingizmi? Bitta o'pib qo'yaymi? – deb, hozir avvalgidek kutib olmayotgan qizingizni kechiring! Hayot sinovlari ayolga zarba berganda, barcha azoblarini ko'z yoshlari orqali aritishga urinadi, faryod solib, oh chekadi. Erkak zoti-chi? Ular his qilayotgan azobli ko'z yoshlar jam bo'lib, qayerini yemirayotgan ekan-a? Balki yuraginidir? Ehtimol, shu sabab ko'plab erkaklar yurak xuruji deb atalmish xastalikni ayollarga qaraganda ko'proq boshlaridan kechirar! “Erkak yig'lamasin, uning ko'z yoshini ko'rsatma, Robbim”, – degan gaplar qulog'imizga ko'p chalinadi. Aslida yig'lash o'zilikmi? O'zlar yig'lashga qodirmi? Aslo, yo'q! Kuchlilargina, qalbi pok insonlarga ko'z yosh to'kishga qodir. Azoblansangiz, yig'lang! Bir chetga o'tib, berkinib yig'lang! Alamlarni ichga yutmang, o'tinchim, hech qachon kasal bo'lmang! Dadajonim, siz bizning baxtimizsiz! Vaqti kelganda farzandi uchun xasdanda past keluvchi ota-onalar bilan mukofotlagan Yaratganga hamd-u sanolar bo'lsin. Azizlar, jannat rayhoni – onamiz va mehridaryo otamizga o'z mehrimizni har soniya oshkor qilaylik! Zero, ular umr safarimizdagi biz kabi sayyoh va qalbimiz mehmonidirlar.

Vazira SULTONOVA
"Ijtimoiy-madaniy faoliyat"
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Qaldirg'ochlar

Qora qanot, oppoq dilli,
Qushlardanmi qaldirg'ochlar?
Kuyga to'la osmon ko'ngli,
Bo'shlardanmi qaldirg'ochlar?

Ayvonda men yotsam uxlab,
Uxlaganmi qaldirg'ochlar?
Yuragimni cho'g'in qalab,
“Puf”laganmi qaldirg'ochlar?

Yongan yurakni, jim, sekin,
Ushlaganmi qaldirg'ochlar?
Uzib olay deb yarasin,
Tishlaganmi qaldirg'ochlar?

Shunda qalbmim dog'in artib,
Tashlaganmi qaldirg'ochlar?
Ko'zlarini qo'shiq aytib,
Yoshlaganmi qaldirg'ochlar?

Ko'tarishar har jon ko'nglin,
Sahnasidir simyog'ochlar.
O'zlari hech bir on ko'nglin,
Xushlaganmi qaldirg'ochlar?

Ko'rindilar yil boshida,
Tom, sog'inib to'kkan yoshlar.
Oydin qizlarni qoshida,
Qishlaganmi qaldirg'ochlar?

Sirojiddin ROBITOV,
"Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish"
ta'lim yo'nalishi 1 - kurs talabasi

Qoraqalpoq

Olislardan dimog'imga ifor kelar,
Noming aytсам vujudimga xumor kelar.
Yuragimning to'ridan bir izhor kelar,
Qoraqalpoq, iforlaring sog'intirdi.

Yodga tushdi beboshgina bolaligim,
Tuproq yo'lda tovonimga tikan kirdi.
Sendan olis ulg'aymoqda sog'inchlarim,
Qoraqalpoq, tikanlaring sog'intirdi.

Bu sershovqin shaharning tor ko'chalari,
Yuragimni allanechuk ovuntirdi.
Yo'llaringni tush ko'raman kechalari,
Qoraqalpoq, yo'laklaring sog'intirdi.

Ko'zga surib Toshkanning osh,
palovlarin,
Achchiq, taxir hayotimga shira kirdi.
Ammo qumsab jo'xori non, zog'oraning,
Qoraqalpoq, "besh barmog'ing"
sog'intirdi.

Dil yorishga do'st topilmas yerlardaman,
Yomon kunda sening yoding ovuntirdi.
Ta'rifini jo'shib aytay she'rlarda man,
Qoraqalpoq, odamlaring sog'intirdi.



Orzugul MUZRABOVA,
"Sahna va ekran san'ati
dramaturgiyasi"
ta'lim yo'nalishi 3 - kurs talabasi

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir:

Nafisa RAIMQULOVA

Tahrir hay'ati:

Go'zal XOLIQULOVA
Hamdam ISMOILOV
Antonino KOSHELEVA
Rashid USNATOV
Mas'ul kotib:
Alimurod TOJIYEV

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo
Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (0-371) 230-28-13.
www.dsmi.uz; nashriyot@dsmi.uz

Gazeta har o'ying oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz-1.

Sahifalovchi:
Shahriyor IBRAGIMOV

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami
bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.
O'Ichami – A3, hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 700 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga 30.10.2019 yilda topshirildi.